

SHAJARAYI TURK ASARIDA CHINGIZXONNING YURISHLARI VA EGALLAGAN HUDUDLARI

Toshaliyeva Odinaxon

Fargʻona davlat universiteti

Annotatsiya

Maqolada Chingizxonning turli xalqlar va davlatlar – Kirayt, Nayman, Uygʻur, Xitoy, Qoraxitoy va Xorazmshoh – ustidan yurishlari, harbiy yurishlar va siyosiy strategiyalari batafsil tasvirlangan. Maqola manbalardan olingan tarixiy voqeotlar asosida Chingizxonning harbiy mahorati, xalqaro siyosatdagi tutumi va xalqaro aloqalaridagi oʻrni yoritilgan. Shu bilan birga, yurishlar davomida xalq va podshohlarga qilgan munosabati ham tahlil qilingan.

Аннотация

В статье подробно описаны походы Чингисхана против различных народов и государств – Кирайт, Найман, Уйгур, Китай, Карахитай и Хорезмшах. На основе исторических источников рассматриваются военные стратегии Чингисхана, его политическое поведение и роль во взаимоотношениях с другими государствами. Также проанализированы его действия по отношению к населению и правителям завоёванных территорий.

Annotation

The article provides a detailed account of Genghis Khan's campaigns against various peoples and states, including the Kirayt, Nayman, Uyghur, China, Kara-Khitan, and Khwarazm Shah. Based on historical sources, it highlights Genghis Khan's military strategies, political conduct, and role in international relations. Additionally, the article analyzes his treatment of local populations and rulers during his conquests.

Kalit soʻzlar: Chingizxon, Kirayt, Nayman, Uygʻur, Buxoro, Samarqand, nizo, harbiy yurish strategiyasi.

Kirish

O'rta asr Sharq tarixshunosligida Chingizxon shaxsiyati va uning harbiy-siyosiy faoliyati alohida o'rin tutadi. Bu borada eng muhim manbalardan biri Xiva xoni va tarixchi Abulg'oziy Bahodirxon tomonidan XVII asrda yozilgan "Shajarayi turk" asaridir. Ushbu asarda turkiy va mo'g'ul qabilalarining kelib chiqishi, nasabi bilan birga Chingizxonning kelishi, kuchayishi, harbiy yurishlari hamda ulkan hududlarni egallashi izchil bayon qilinadi.

"Shajarayi turk" Chingizxonni nafaqat bosqinchi, balki kuchli iroda egasi, qat'iy intizom o'rnatgan va o'z davrining eng qudratli davlatini barpo etgan hukmdor sifatida tasvirlaydi. Mazkur maqolada Chingizxonning yurishlari, egallagan hududlari va ularning tarixiy ahamiyati asar ma'lumotlari asosida keng yoritiladi.

Chingizxon tarixiy manbalarda 1162-yil, Mo'g'ul yurti, Yilun-yilduq hududida dunyoga kelganligi qayd etilgan. U tug'ilgan paytda bir qo'li yumuq bo'lgan, va onasi bir bo'lak turg'un qonni topganini ko'rgan. Bu voqea xalq orasida uning kelajakdagi ulug' shoh bo'lishining bashorati sifatida talqin qilingan. Chingizxonning otasi unga "Temuchin" nomini qo'ygan va keyinchalik u "Chingizxon" laqabini olgan.

Chingizxonning naslida olti yuz yil davomida turli avlodlar va shohlardan o'tgan, ular orqali Mo'g'ul xonligi shakllangan. Naslida shuningdek, Payg'ambarlar va Odam alayhissalomdan ham avlodlar ko'rsatilgan bo'lib, bu Chingizxonning tarixiy va diniy qiyofasini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Kirayt eli bilan urushi

Kirayt elining o'sha davrdagi podshohi Marg'uz bo'lgan. Uning ikki o'g'li — kattasi Qurchaqur va kichigi Kur Marg'uzxon — elni boshqarish vazifasini olgan. Qurchaqurning besh o'g'li bor. Ular O'ngxon, Erka Qora, Boytemur, Mamishay va Chabikyu. Qurchaqur vafot etgandan keyin ular o'zaro hokimiyat uchun kurashgan. Chingizxon ushbu nizoda oqilona harakat qilib, yosh O'ngxonni o'z qo'lga olishga qaror qildi. U O'ngxonni himoya qilib, Erka Qora va Nayman yordamchilarini mag'lub etdi. Chingizxon urush davomida makr va siyosiy hiyla ishlatishni bilgan. U Kirayt elining ichki nizolarini o'z foydasiga yo'naltirdi. Shu orqali urushni tez va samarali tarzda yakunladi. Urush davomida yuzlab

askarlar halok bo'ldi, lekin Chingizxonning qo'mondonligi ostidagi kuchlar g'alaba qozondi. U shuningdek, Nayman va Kirayt urug'lari o'rtasidagi nizoni tartibga solib, ularni o'z hukmronligi ostiga qo'ydi. Urushdan so'ng O'ngxon ulug' podshoh bo'lib, uning davlati kun sayin kuchaydi. Chingizxon esa bu g'alaba orqali siyosiy maydonni kengaytirdi, turli urug'lar bilan aloqalarni mustahkamladi va Mo'g'ul xalqi orasida o'z obro'sini oshirdi. Shu bilan birga, Kirayt urug'i bilan bo'lgan nizolar Chingizxonning kelajakdagi keng hududlarga hukmronlik qilish rejalari uchun poydevor yaratdi.

Chingizxonning Nayman eli bilan urushi

Nayman eli o'sha davrda Tayangxon boshchiligida bo'lib, o'z hududida kuchli va tartibli boshqaruvni amalga oshirgan. Tayangxon o'z xalqi orasida ijobiy obro'ga ega bo'lib, kuchli askar va siyosiy hamkasblari bilan mashhur edi. Shu bilan birga, Najman elida ichki nizolar mavjud bo'lib, bu Chingizxonning strategik foydasiga xizmat qilishi mumkin edi.

Chingizxon urushda o'zining askarlari va qo'mondonlarini aniq vazifalar bilan ta'minladi. Urush davomida Nayman elining bir qismi Chingizxon bilan kurashib halok bo'ldi, ba'zi boshliqlar esa qochishga majbur bo'ldi. Shu tarzda, Chingizxon Nayman elini bo'linishga va mag'lubiyatga uchratishga muvaffaq bo'ldi. Nayman elini mag'lub qilgan Chingizxon, ushbu hududni o'z ta'sir doirasiga qo'shdi. Urush natijasida Nayman elining siyosiy va harbiy kuchi zaiflashdi, Mo'g'ul xalqi esa yagona markaziy hokimiyat ostida birlashdi. Bu g'alaba Chingizxonning kelajakdagi keng hududlarga hukmronlik qilish strategiyasini amalga oshirishga zamin yaratdi.

Uyg'ur Eliga yurishi

Uyg'ur elining podshohi Idikut bo'lib, u davrda Xitoy imperiyasiga, xususan Qoraxonliklarga mol berib, siyosiy barqarorlikni saqlashga harakat qilgan. Biroq, Qoraxonning navkari Shadkam Uyg'ur elida fitna va tartibsizliklar keltirib chiqardi. Bu vaziyatni kuzatgan Chingizxon o'zining obro'sini namoyon qilib, Uyg'ur eliga siyosiy va harbiy vositalar orqali ta'sir o'tkazdi.

Chingizxon Idikut bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ydi, unga hurmat va iltifotlar ko‘rsatdi, shuningdek, Uyg‘ur podshohiga o‘zining kuchini va siyosiy niyatlarini tushuntirdi. Shu tarzda, Uyg‘ur elining sodiq qismi Chingizxon hukmronligiga qo‘shildi, Idikut esa Chingizxonning siyosiy kuchini tan olishga majbur bo‘ldi.

Xitoy va Qoraxitoy hududlariga yurishi

Chingizxon Xitoy va Qoraxitoyni zabt qilishni ham o‘z strategiyasining muhim qismi deb bildi. U Xitoy podshohi Oltanxonning avlodlariga nisbatan adovatni hisobga olib, o‘z askarlari bilan yurish boshladi. Chingizxonning elchisi Chakarxoja orqali Xitoy va Qoraxitoyning hududiy sharoitlari va strategik nuqtalarini o‘rgandi.

Harbiy yurish davomida u yerlardagi zaif pozitsiyalarni aniqlab, samarali hujumlar bilan ko‘plab shahar va qal’alarni zabt qildi. U Xitoy va Qoraxitoy hududlarida qishloqlarni, shaharchalarni va askarlarini muvaffaqiyatli nazorat ostiga oldi. Shu tarzda, Chingizxon o‘zining siyosiy va harbiy kuchini nafaqat Mo‘g‘uliston, balki butun Markaziy va Sharqiy Osiyo hududlarida namoyon etdi.

Chingizxonning Buxoro atrofiga yurishi

Chingizxon tarixida Markaziy Osiyoda hukmronlikni mustahkamlash jarayoni davomida Buxoro va uning atrofidagi hududlarni zabt qilishi muhim o‘rin tutadi. 615–616 yillarda Chingizxonning harbiy yurishlari Buxoro va uning atrofidagi shaharlarni egallash bilan bog‘liq bo‘lgan va bu jarayon mintaqadagi siyosiy vaziyatni tubdan o‘zgartirdi.

Chingizxon o‘z lashkarini safarbar qilib, o‘z yurti Mo‘g‘ulistonni tark etib, O‘trar va unga yaqin hududlarga yo‘l oldi. Yo‘l davomida u turli qo‘shni elchilar va hukmdorlarni o‘z safiga qo‘shdi: Qorliq xalqining xoni Arslonxon va Uyg‘ur podshohi Idikutning ko‘plab xalqini o‘z lashkariga jalb qildi. Shu bilan birga, Besh Baliq, Sighnaq va boshqa hududlardan kelgan qo‘shinlar bilan birlashdi. Bu strategiya Chingizxonning kuchini kuchaytirib, Buxoro tomon harakatlanishida muhim omil bo‘ldi.

Buxoroga yetgach, Chingizxon qattiq harbiy choralar ko‘rdi. Shahar va uning qal’asi oldida o‘tkazilgan janglarda Sulton Muhammadning lashkarini mag‘lub etdi. Ularning 20

ming kishilik qo‘shini Chingizxonning harbiy taktikalari va kuchli lashkariga qarshi tura olmadi. Shahar ichidagi xalq, imomlar, muftilar va ulamolar Chingizxon hukmiga bo‘ysundi.

Chingizxonning Samarqandga yurishi

Chingizxonning Markaziy Osiyoda kengayishi jarayonida Samarqandni zabt qilishi muhim bosqich bo‘ldi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, bu voqea 616-yillarda sodir bo‘lgan va u Xorazmshoh Sulton Muhammadga qarshi olib borilgan harbiy yurishning yakuniy bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Samarqanddagi Xorazmshoh qo‘shinlari son jihatidan katta edi: tarixiy manbalarda 60 ming turk va 50 ming tojik askarlari bo‘lganligi qayd etiladi. Shahar qal’asi mustahkam va xalqining jasorati bilan ajralib turardi. Chingizxon o‘z lashkarini Buxorodan olib, Samarqandga yo‘l oldi va o‘g‘lonlarini O‘trorni boshqarish uchun yubordi, shuningdek, no‘yonlarini Samarqandning sarhadlariga joylashtirdi.

Samarqand ichidagi Xorazmshoh qo‘shinlari darvozadan chiqib, Chingizxonning kichik bir lashkariga qarshi shiddatli jang boshladi. Bu janglar davomida Xorazmshoh qo‘shinlarining bir qismi yo‘q qilindi, bir qismi esa asirlikka olindi. Shahar ichida esa shiddatli janglar tun bo‘yi davom etdi.

Shuningdek, Xorazmshohning o‘g‘lonlari va boshqa qo‘shinlari orasidan 30 ming kishi Chingizxonning no‘yonlari va o‘g‘lonlariga qo‘shildi. Shayxul-Islom va qozilar ham Chingizxonga bo‘ysunishdi va ikki yuz ming kishilik mahalliy ra’iyat Chingizxonning nazorati ostiga o‘tdi.

Xulosa

Chingizxonning yurishlari Markaziy Osiyo va Sharqiy hududlarda o‘z hukmronligini kengaytirish bilan ajralib turadi. Uning strategiyasi nafaqat harbiy yutuqlarga, balki diplomatik va siyosiy aloqalarni rivojlantirishga ham qaratilgan edi. Harbiy yurishlar davomida Chingizxon: dushman qo‘shinlarini tartib bilan yo‘q qildi, mahalliy rahbarlar va

diniy ulamolar bilan yaxshi munosabat o'rnatdi, hududiy kengayish va siyosiy barqarorlikni ta'minladi.

Shu tariqa, Chingizxon nafaqat harbiy sarkarda sifatida, balki davlat boshqaruvi va diplomatiyada ham o'zining ulug'vorligini namoyon qildi. Uning yurishlari Markaziy Osiyoning siyosiy va madaniy tarixida chuqur iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulg'oziy. Shajarayi turk. Toshkent: Cho'lpon - 1992.
2. Xudoynazarov. H. Abulg'oziy Bahodirxon tarixchi va adib. T: O'zbekiston -1994.
3. Qurbanboyeva S.M. Abulg'oziy Bahodirxon ilmiy faoliyatining o'rganilishi.
4. Begmatov E. Mustaqillik va toponimiya. O'zbek tili va adabiyoti-2009, 5-son, 9-12-b.
5. Abulg'oziy. Shajarayi tarokima. T.: 1995.3 .O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 4-jild. T.: 1978.4
6. Xudoyberdiev H. Abulg'oziy. T.: 2004.6.I.
7. Adizova. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. T.: 2009